

PREZIDENT TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI

ADABIYOT

8

sinf

8-sinf o'quvchilari uchun darslik

Ikkinci qism

O'zbekiston Respublikasi Prezident ta'lif muassasalari
agentligi tomonidan tasdiqlangan

Toshkent - 2022

UO'K: 37.016:821.512.133(075.3)

KBK: 83.3ya72

S 24

8-sinf adabiyot darsligi (II qism) [Matn] : darslik / J. Nurmuhhammadov, S. Qambarova, O. Olimjanov, M. Yuldasheva, S. Inomjonova. - Toshkent: "Adast poligraf", 2022. -248 b.

Tuzuvchi-mualliflar:

J. Nurmuhhammadov, S. Qambarova, O. Olimjanov,
M. Yuldasheva, S. Inomjonova.

Mas'ul muharrir:

Q. Husanboyeva - pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

O. Oxunjonova - pedagogika fanlari nomzodi;

Sh. Hamidova - Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabining
oliy toifali ona tili va adabiyot o'qituvchisi;

Y. Do'smatova - R. Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan
musiqa maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

8-sinf adabiyot darsligini yozishda xalqaro va milliy adabiyta'larning ilg'or tajribalariga
tayanilgan bo'lib, adabiyotning san'at sifatidagi ahamiyatini oshirish maqsadida *asarning kino, tasviri, san'at, teatr, radio talqinlari* ham darslikda aks etgan. Bu orqali o'quvchilar bir asarni
turfa yondashuvlar asosida o'rganadi.

Shuningdek, har bir mavzu o'quvchining mustaqil o'zlashtirishi, erkin tahlil qilishi,
topshiriqlar ustida kichik tadqiqot olib borishiga moslashtirilgan. Darslikda o'quvchilar
ijodkorligini, tanqdiy-ijodiy fikrlashini, badiiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan savol-
topshiriqlar aks etgan. Qolaversa, o'quvchilar badiiy asarlarni ma'lum parchalar asosida emas,
balki to'liq mutolaa qilishi ko'zda tutilgan bo'lib, asarning darslikda aks etmagan, mustaqil
mutolaaga mo'ljallangan qismlariga qiziqtirish va diqqatni oshirish maqsadida "Xatcho'p"
rukni ishlab chiqilgan.

Darslik tuzilish jihatdan ikki qismdan: birinchi qism I-II chorak; ikkinchi qism
III-IV chorak mavzularidan tashkil topgan.

Barcha huquqlar himoya qilingan.

*O'zbekiston Respublikasi Prezident ta'lif muassasalari agentligining yozma
ruxsatisiz ko'paytirish, tarqatish, qisman yoki to'liq ko'chirish taqiqlanadi.*

© Prezident ta'lif muassasalari
agentligi, 2022

ISBN 978-9943-8152-4-7

MUNDARIJA


- 5** Abdurauf Fitratning hayoti va ijodi. She'rlaridan namunalar.
- 21** Xurshid Do'stmuhammadning hayoti va ijodi. "Mirzakarimboyning qazo bo'lgan namozi" hikoyasi.
- 37** Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodi. "Jaloliddin Maguberdi" dramasi.
- 59** Usmon Nosirning hayoti va ijodi. She'rlaridan namunalar.
- 73** O.Henrining hayoti va ijodi. "So'nggi yaproq" hikoyasi.
- 87** Daniel Defoning hayoti va ijodi. "Robinzon Kruzoning sarguzashtlari" romani.
- 117** Herbert Uellsning hayoti va ijodi. "Ko'rinmas odam" romani.
- 135** Nazariy ma'lumot: fantastik asar haqida tushuncha.
- 137** Shukur Xolmirzayevning hayoti va ijodi. "O'zbeklar" va "Ot egasi" hikoyalari.

- 162** Nazariy ma'lumot: xarakter haqida tushuncha.
- 163** To'ra Sulaymonning hayoti va ijodi. She'riyatidan namunalar.
- 175** Muhammad Yusufning hayoti va ijodi. She'riyatidan namunalar.
- 191** Robindranath Thakurning hayoti va ijodi. "Shubxa" hikoyasi.
- 203** Isajon Sultonning hayoti va ijodi. "Qismat" va "Shamolli kecha" hikoyalari.
- 221** Sadriddin Ayniyning hayoti va ijodi. "Sudxo'rning o'limi" romani.



Adabiyot — fikr, tuyg'ularimizdagi to'lqinlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'lqinlarni yaratmoqdir...

Abdurauf Fitrat



ABDURAUF FITRAT
(1886-1938)

MILLAT DARDIDA YONGAN ADIB

Mavzuni o'r ganish jarayonida:

- Fitratning ma'rifatchilik faoliyatini tanishamiz;
- shoir she'riyatining badiiy-g'oyaviy xususiyatlarini o'rganamiz;
- ijodkorning ayrim she'rlaridagi ramziy-majoziy obrazlar orqali ishora qilingan voqeа-hodisalarni tahlil qilamiz;
- matnda badiiy tasvir vositalarining vazifasini aniqlaymiz.



“

*Abdurauf Fitrat –
Turkiston ruhining
dahosi,
U Turkiston istiqolli
uchun qurbon bo'ldi.
Istiqololdan keyin qayta
tug'ildi.
Bu kun Abdurauf Fitrat
jahon fuqarosiga,
Turkistonning
olamshumul ramziga
aylandi.*

Rauf Parfi,
O'zbekiston xalq shoiri.

IJODKOR HAQIDA...

Hayoti va faoliyati

XX asr o'zbek adabiyoti, fani va madaniyatining yirik vakili Abdurauf Fitrat 1886-yili Buxoroda Abdurahim sarrof (pul almashtiruvchi) oilasida dunyoga kelgan. U boshlang'ich tarbiyani diniy maktabda oldi, so'ng mashhur "Mir Arab" madrasasida o'qidi.

Fitrat – Abduraufning taxallusi bo'lib, "tug'ma iste'dod" ma'nosini beradi. U o'smirlik yillarida "Mijmar" (cho'g'don) taxallusi bilan ham ijod qilgan.

Jamiyat taraqqiyoti uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashgan jadidchilik harakati faollari maslahati va yordami bilan bir guruh yoshlar, jumladan, Fitrat Istanbulga o'qishga yuboriladi. 1909-yili Istanbulda "Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadida xususida qilgan munozarasi" kitobi bosilib chiqdi. Ushbu kitob Buxoroda bosilishiga Amir Olimxon qarshilik qilishi tufayli Istanbulda nashr etilgan edi.

Keyinchalik Fitrat Toshkentda "Chig'atoy gurungi" jamiyat faoliyatini yo'lga qo'ydi. Jamiyat 3 yilgina (1918–1920) faoliyat yuritdi, lekin ushbu jamiyat o'zbek tili va adabiyotigina emas, umuman o'zbek madaniyatining shakllanish va taraqqiyot tarixini yangi, zamonaliv ilm asosida o'rganishni boshlab berdi.

Fitrat tashabbusi bilan Buxoroda Sharq musiqasi maktabi ochiladi. Ushbu musiqa maktabi uchun Fitrat o'z uyini bo'shatib beradi. Jumhuriyatda Buxoro xalq dorilfununi (universitet) ochish to'g'risida tarixiy qaror qabul qilinadi hamda Buxoro ilmiy jamiyatini tuziladi. Istiqlol uchun qo'yilgan ushbu qadamlar sho'rolarga yoqmaydi va Fitrat Buxorodan ketib, Leningrad davlat universitetining Sharq fakultetida Sharq xalqlari tili, madaniyati va adabiyotidan ma'ruzalar o'qib, professor ilmiy unvoniga ega bo'ladi.

1927-yil O'zbekistonga qaytgan Fitrat yana ilmiy, ijodiy faoliyatga sho'ng'idi. Eng qadimgi turkiy adabiyot namunalaridan tortib, aruz, musiqa, shaxmat nazariyalari haqida ilmiy risolalar e'lon qildi. Publitsistik, dramatik asarlari bilan Fitrat shu janr, yo'naliishlarning taraqqiyotida beqiyos rol o'ynadi. Lekin unga turli tazyiq va hujumlar ko'p bo'ldi. Natijada "sinfiy dushman", "aksilinqilobchi", "aksilsho'roviy", "millatchi", "g'arb josusi" kabi ayblovlar bilan adib, tilshunos, tarixchi, faylasuf, huquqshunos va musiqashunos Fitrat 1938-yil 4-oktabrda otib o'ldirildi.



Asarlari

She'riy to'plamlari: "Sayha" ("Bong"), "Uchqun", "Yurt qayg'usi" (turkum).

Nasriy asarlari: "Munozara", "Qiyomat", "Me'roj", "Zahroning iymoni", "Zayd va Zaynab", "Oq mozor", "Qiyshiq eshon", "Bayonoyi sayyohi hindi".

Dramatik asarlari: "Begijon", "Ulug'bek", "Temur sag'anasi", "O'g'uzzxon", "Chin sevish", "Abo Muslim", "Muqaddas qon", "Hind ixtilolchilari", "Abulfayzzon", "Shaytonning tangriga isyoni", "Arslon", "Ro'zalar", "To'lqin", "Sho'rishi Vose".

Publitsistik, ijtimoy-siyosiy asarlari: "Islohot va Buxoro", "Sharq siyosati", "Yig'la, islom", "Mavludi sharif".

Tilshunoslikka oid asarlari: "Ona tili"(derslik), "Tilimiz", "Sarf", "Nahv", "Sarfi zaboni tojiki", "Qoidahoi zaboni tojiki".

Adabiyotshunoslikka oid asarlari: "O'quv", "Insoniyat haqida Navoiyning fikri", "Bedil", "Adabiyot qoidalari", "Eng eski turk adabiyoti namunalari", "Eng eski mo'g'ul tili lug'ati", "O'zbek adabiyoti namunalari" (I jild), "O'zbek adabiyotiga oid qiroat kitobi", "Fors shoiri Umar Xayyom", "Qadimgi turk adabiyoti izlanishlari", "Mahmud Koshg'ariy. "Devonu lug'oti-t turk", "O'zbek adabiyotining tarixi", "Fors adabiyotining tarixi", "Aruz haqida".

Jadid maktablari uchun darsliklari: "O'qu", "Muxtasar islom tarixi".

Tavsiya

MTRK arxividagi "Millat fidoyilar" turkumida tayyorlangan "Qarat'on qurbanli, birinchi o'zbek professori Abdurauf Fitrat qismati" hujjatli filmini quyidagi havola orqali tomosha qiling. Filmda keltirilgan va bildirilgan fikrlarga diqqat qiling. Fitratning ma'nnaviy va siyosiy jasorati haqida kerakli ma'lumotlarni qayd qilib oling.



MUTOLAADAN OLDIN...

Siz bilan mutolaa qilishga kirishayotganimiz Fitratning:

- “Mirrix yulduziga”;
- “O‘gut”;
- “Yurt qayg‘usi”;
- “Shoir”;
- “Sharq”;
- “Go‘zalim, bevafo gulistonim” kabi she’rlari shoirning o‘tli, shu bilan birga qayg‘uli nidolaridangina iborat emas, balki yurtini, millatini, eng achinarlisi or-nomusini jaholat botqog‘iga botgan mustamlakachilarga oyoqosti qildirib qo‘ygan, yovuzlikni ko‘rsa-da, kar va soqovga aylanib olgan yurtdoshlariga nisbatan murojaatidir.

Fitrat “Buxoro vaziri Nasrullo Parvonachiga ochiq maktub”ida shunday yozgan edi: “*Har qancha ko‘z va qulog‘ingizni berkitsangiz ham, bu qadimiyl islam millatining faryodi va muqaddas vatanimizning xarobligiga achimmay tura olmaysiz... Millatimiz va yurtimizni shu holga keltirib qo‘ydikki, dunyoning burchagida eng qiyin kunlarda tashvish chekib yashayotgan odamlar ham bizning ahvolimizga qon yig‘lamoqdalar*”.

Siz quyida o‘qiydigan she’rlarda Turkistonning yuqoridagi maktubda qayd etilgan ayanchli ahvoli ifodalangan va ijodkorning “yaralari ochiq shoir” ekaniga, millat taraqqiysi uchun sidqidildan xizmat qilganiga amin bo‘lasiz.

MIRRIX YULDUZIGA

Go‘zal yulduz, yerimizning eng qadrli tuvg‘oni!
 Nega bizdan qochib muncha uzoqlarg‘a tushibsan;
 Tuvg‘aningga nechun sira gapurmasdan turibsan?
 So‘yla, yulduz, holing nadir? Nechuk topding dunyoni?
 Bizning yerda bo‘lib turg‘an tubanliklar, xo‘rliklar,
 So‘yla, yulduz, sening dag‘i quchog‘ingda bo‘lurmi?



Bormi senda bizim kabi insonlar,
 Ikki yuzli ishbazarlar, shaytonlar.
 O‘rtoq qonin qonmay ichkan zuluklar,
 Qardosh etin to‘ymay yegan qoplonlar?



Bormi senda, o'ksuz yo'qsulning qonin —
Gurunglashib, chog'ir kabi ichkanlar?
Bormi senda butun dunyo tuzugin,
O'z qopchig'in to'l dirg'ali buzg'anlar.
Bormi senda bir o'lkani yondirib,
O'z qozonin qaynatg'uchi xoqonlar.
Bormi senda qorin-qursoq yo'lida
Elin, yurtin, borin-yo'g'in sotqonlar?

1920-yil

Lug'at

O'ksuz - baxtsiz.
Chog'ir - sharob, may.
Tuzuk - tartib, intizom.

Bilib oling!

Mirrix — Mars sayyorasi.

Shamsiy (Quyosh) yil hisobida *Hamal* (Mart) oyining homiy sayyorasi hisoblanadi. Bu oyning unsuri (xos belgisi) — oloydir. Xalqimiz 21-martdan boshlanadigan oyni (*Navro'zni*) olqishlab, «*Hamal keldi — amal keldi*», deydi.



Savol va topshiriqlar

- She'rning yozilish davriga e'tibor bering va XX asr boshidagi Buxoro jumhuriyati hamda O'rta Osiyo mintaqasida yuz bergan voqealar shे'nda qay darajada aks etgan?
- Sizningcha, shoir nega Mirrix yulduzini “*yerimizning eng qadrli tuqq'ani*” deb atamoqda?
- Mirrixning “*muncha uzoqlarg'a*” tushishiga, tug'ishganlariga ham gapirmasdan turishiga sabab nima bo'lishi mumkin?
- She'rning qaysi misralarida mustamlakachilikning yurt boshiga olib kelgan ayanchli taqdiri ifodalangan?
- She'nda “*qorin-qursoq yo'lida*” “*bor-u yo'g'in sotqonlar*” ham fosh qilinadi. Fikringizcha, shoir “*bor-u yo'g'in*” deganda nimalarni nazarda tutgan?

O'ylab ko'ring!

*Bormi senda butun dunyo tuzugin
O'z qopchig'in to'ldirg'ali buzg'anlar.*

Ushbu misralarda dunyodagi qaysi tuzuk, ya'ni tartib, huquq haqida gap ketyapti? Nafsi ni qondirish yo'lida hech narsadan qaytmaydiganlar insoniyatning qaysi huquqlarini poymol qilmoqda deb o'ylaysiz?

Tadqiq qiling!

She'rda lirik qahramon Mirrix yulduziga bergan savollarni o'rganib chiqing.
Nega Mirrix biron bir savolga javob bermagan? Fikringizni asoslashga harakat qiling!

Tausiya

"Mirrix yulduziga" she'ri asosidagi qo'shiqni quyidagi havola orqali tinglang. She'r mazmuni va musiqa uyg'unligiga diqqat qiling.

Ijrochi: Baxtiyor Rahmonov.
Manba: YouTube platformasi.

**SHOIR**

(Ushbu she'r 1920-yil 24-martda yozilgan. Munaqqid Miyon Buzruk Solihov dalolatiga ko'ra, she'r Cholponaga bag'ishlangan.)

Bukun yig'lab o'tirmishdim, sen kelding,
Bir shoirning bir «so'zi»ni so'zlading,
Men u so'zning ruhingdag'i izlarin
Sening go'zal ko'zlariningda o'qidim.

U izdan
O'zim uchun ko'b umidlar to'qidim.
— Umidsizcha yashay olmam, netayin.
Emish... Shoir sevgilisiga yozg'an
Bir yozuvda qayg'ularini to'kmish,
So'zlarining eng oxirida ondan
Ruh'i uchun biroz ko'mak istamish.





Bilasanmi? Shoir ishqning eng nozli,
Erka, injiq yog'dusidir, turolmas
Ma'shuqidan ko'rmagancha kulushli,
Marhamatli, chin sezguli bir ko'mak,
Mana shudir uning uchun bor tilak.
Shoir...
Tabiatdan sirli, teran ma'nolar,
Tiriklik-chun ochiq, to'g'ri, chin yo'llar
Izlar — topar, o'zi uchun saqlamas.
Unlarni
Yoz gulining yaprog'idan to'qilgan
«So'z»lar bilan o'rab bizga topshirar.
Shoir...
Ishq bog'ining tentak, singirli, yongan,
Bulbulidir. Bashariyat dunyosin
Kichik, nozli qanoti uzra qo'yari,
Ko'klar sari yuksaltkali talpinar.
Mana shuning o'ksuz, yo'qsul ko'ngluni
Ko'tarmak-chun, go'zallarga tegishdir.
Kim ozg'ina qarag'aylar, kulgaylor
Ingrab turgan jonini
Qo'llag'aylar, biroz ko'mak etkaylor.

Savol va topshiriqlar

1. Lirik qahramon izlagan "so'z" nima bo'lishi mumkin? She'r matniga tayanib, javob bering.
2. Shoирning tabiatdan hayot uchun ochiq, to'g'ri yo'llarni qidirib topib, "o'zi uchun saqlamas"ligini qanday idrok etdingiz?
3. Sizningcha, she'rda shoирning ruhiy olami, hayoti qay tarzda ifodalangan? She'rning kayfiyati haqida nima deya olasiz?
4. Shoирning bashariyatni "kichik, nozli qanoti"ga qo'yishini qanday tushundingiz? Insoniyatni yuksaklarga ko'tarish uchun ulkan "qanot" kerak emasmi? Javobingizni asoslang.

Aniqlang va dalillang!

She'rdagi "Umidsizcha yashay olmam netayin" misrasini alohida tahlil qilib, buni Fitratning ijodiy tamoyillaridan biri sifatida qabul qilish mumkinmi yoki yo'qligini isbotlang.

Topshiriq

"Shoir" she'ridagi o'ziga xos yozilish va o'qilishga ega bo'lgan so'zlarni ajrating. Ularni o'z so'zlaringiz bilan izohlashga harakat qiling. Ushbu so'zlarning she'rdagi jozibasi haqida sinfdoshlarining bilan suhbatlashing.

O'ziga xos so'zlar	Izohim
O'qiduqcha	

O'GUT

Og'ir yigit, sening go'zal, nurli ko'zingda
 Bu millatning saodatin, baxtin o'qudim.
 O'ylashingda, turishingda hamda o'zungda
 Bu yurt uchun qutulishning borlig'in ko'rdir.



Turma - Yugur, tinma - tirish,
 bukilma - yuksal.
 Hurkma - kirish, qo'rqma - yopish,
 yo'rılma - qo'zg'al.

Yel yo'lini to'sib turgan eski bulutlarni
 Yondirib qo'y, yirtib tashla, barchasin yo'q et.
 Qilomasang shu ishlarni,
 Sening uchun xo'rlikdir bu...
 Yiqil, yo'qol, ket!

Yo'rılma - charchama.



Savol va topshiriqlar

1. Shoir nega ushbu she'rida aynan yigitlarga murojaat qilgan deb o'ylaysiz?
2. Shoir nazdida "bu yurt uchun qutulish" yo'llari nimalar edi?
3. "Turma — Yugur, tinma — tirish, bukilma — yuksal, Hurkma — kirish, qo'rqma — yopish, yo'rılma — qo'zg'al" - shoirning ushbu hayqirig'ida qanday umidlar mujassam bo'lishi mumkin?
4. She'nda qanday kayfiyat ustun: *pand-nasihatmi yoki da'vat?* Javobingizni matnga tayanib asoslang.
5. Sizningcha, "Yel yo'lini to'sib turgan eski bulutlar" nimalar edi? Javoblariningizni jadvalga joylang:

*Yel yo'lini to'sib turgan eski
bulutlar:*

Tadqiq qiling!

"O'gut" she'ri bilan G'afur G'ulomning "Yigitlarga" she'ridagi:

*Atomlar quvvati pok qalbingizda
Va sizdan kutadi taqdirin jahon:
Jahon, zamon, xalqlar, Vatan va davlat
Sizga tayanadi, sizdir posbon, - misralarini taqqoslang.*

Ikkala she'rdagi g'oya va mazmun haqida fikr bildiring.

GO'ZALIM, BEVAFO GULISTONIM

Siz o'qishga shaylangan she'rning o'ziga xos tarixi bor. Davlatimiz madhiyasining mualliflaridan biri, bastakor Mutal Burxonovning qayd etishicha, ushbu she'r uning Fotima ismli opasiga bag'ishlab yozilgan. Fotima bilan Fitrat turmush qurban bo'lib, ular 3 yilcha baxtli yashashgan. Fotimani akasi Misbohiddin Burxonov 1931-yili Samarqanddan Dushanbega chaqirtirib oladi.

Sevikli yoridan ayrilishi Fitrat uchun juda og'ir zarba bo'ladi.

"U ancha vaqtgacha o'ziga kelolmay yuradi va yuragidagi bor dardini qog'ozga to'kib soladi. Shu tarzda «Nega tark etding meni?» degan she'riy maktub dunyoga keladi. Opam bu maktubni umrining oxiriga qadar ko'z qorachig'iday avaylab saqlagan. Men u kishining vafotlaridan so'ng qog'ozlarini ko'zdan kechirayotib, maktubni topib oldim va undan nusxa ko'chirdim", - deya xotirlaydi bastakor.

Maktub – she'r 1932-yil 4-noyabrda Samarqandda yozilgan.

She'rni o'qish davomida shoirning o'tli nolasiga guvoh bo'lasiz...

Go'zalim, bevafo gulistonim
Bog' umrimda toza rayhonim,
G'am-u qayg'ularim hujumindan
Sen eding mehribon nigahbonim.



*Meni behuda tashlading-ketding,
Nega o'ldirmading-da tark etding.*



Kel, gulim, kel, ayoqingg'a yiqilay,
Bir zamon qo'y: to'lib-toshib yig'lay.
Qo'y, biroz qo'yki, xoki poyingni
Surmadek yoshli ko'zuma suray.

*Ketma, tur, tingla arzi holimni,
Arz etay holi purmalolimni.*

Qani ul damki, sen eding yorim,
Munisim, hamdamim, madadkorim.
Sening og'ushi iltifotingda
Rohat etmishdi jismi bemorim.

*Meni behuda tashlading-ketding,
Nega o'ldirmading-da tark etding.*



Kel, ayoqingg'a qon bo'lub to'kulay,
Bir nafas dard-hajrdan qutulay.
Kel, go'zal dilbarim, kel, sochingni
Bir taray, bir o'pay-da, so'ngra...

*Meni behuda tashladning-ketding,
Nega o'ldirmading-da tark etding.*

O'ylab ko'ring!

1-naqarotda shoir yorining tashlab ketishini "behuda" ekanligidan qayg'uradi. Nega u shunday xulosaga kelgan bo'lishi mumkin?

Savol va topshiriqlar

1. Fitratning yuqoridagi ijtimoiy-siyosiy she'rlaridan keyin ushbu ishqiy mavzudagi she'ri bilan tanishgach, shoir ijodi haqida qanday tasavvurga ega bo'ldingiz?
2. Qaysi misralarda oshiqning yorga nisbatan eng samimiy tuyg'ulari aks etgan deb hisoblaysiz?
3. She'rdagi "...xoki poyingni surmadek yoshli ko'zima suray" misrasini Lutfiy, Navoiy g'azallaridan shunday ma'no beruvchi baytlar bilan qiyoslang. Lirik qahramon kayfiyatini his qilishga urining.
4. "Kel, ayoqingg'a qon bo'lub to'kulay" misrasini qanday tushundingiz? Oshiqning ruhiy holatini ochishga harakat qiling.

Muhokama qilning!

She'r naqarotlariga diqqat qiling. Ular she'rning mazmuni va ohangiga qanday ta'sir qilmogda?

SHARQ

Ushbu she'r ilk bor "Tong" jurnalining 1920-yil 2-sonida chop etilgan. Fitratning tergov hujjatlarida Fayzulla Xo'jayevning iltimosiga ko'ra, bu she'rga xalq hofizi Muhiddin qori Yoqubov kuy bastalab, ijro etgani qayd etilgan.

She'r "Rusiyada yangi balo" bo'lgan "bolshevik balosi!" tufayli o'lka boshiga tushgan ko'rguliklar haqida bong uradi.

Qardoshlarim, mana sizga bir o'lka
 Kim, topilmas Yer yuzida singari.
 Har yonida keng, yam-yashil uchmohlar
 Jon suvindan yetishkandir gullari...
 Og'ochlari yashil kiyimlar kiygan
 Terilishar toping'ali tangriga.



Og'ir, yuksak, ko'rkan, haybatli tog'lar
 O'ngdan,
 So'ldan...
 Har yondan
 Haq yo'lida urushg'uchi askardek,
 Yasov tortib, ko'krak kerib yuksalgan
 Ko'kdan dahi o'z haqqini istardek.

Tengizlardan qanot ochib tabiat
 Quchoqlamish bu sevgili yovdusin.
 Tangri dahi muzdan, suvdan ham tog'dan
 Qurshatmishdir qo'rg'on qilib tegrasin-
 Kim yovvoyi bir hayvon
 Suqub qolmasun munga
 Yirtqich tishin, tirnog'in.

Aniqlashtiring!

Tog' va dengiz nimaning
 ramzi bo'lishi mumkin?

Bunda turdi har ulusning har sasi,
 Butxonasi, o't uyasi, ka'basi,
 Ham munda o'q yashadi.
 Biroq bu kun, esizlarkim, bu o'lka
 Har tomonidan talanmishdir yo'lsizcha,
 Qush boqish-la qarangiz,
 Boqing, buning ko'kragidan o'q bosdi.
 Madaniyat degan g'arbli olbosti,



Bunda bu kun nelar bor:
 O'tlar aro yonib turg'an qishloqlar,
 Xirmon bo'lib yotg'an gavdalar jonsiz,
 Oqmoqdadir qizil qondan ariqlar,
 Tinch turg'anlar talanadir omonsiz.
 To'rt-besh yashar bir bolaning boshini,
 Boqing, keskin qilich bilan kesmishlar,
 Yig'lab turg'an onasining bo'yning'a
 Bir ip bilan osmishlar!...
 Yangigina kelin bo'lg'an bir qizning
 Ko'kragini, eri bo'lgan yigitning
 Jonsiz yotgan gavdasi uzra qo'yub
 Nayza bilan teshmishlar!..
 Xotinlarning pardasi,
 Bolalarning yuragi,
 Qarilarning gavdasi,
 Yirtilg'on,
 Yorilg'on,
 Ezilg'on!..
 Kim bergen,
 Bu o'g'urli o'lkaga buncha o'tni?
 Kim to'kkani
 Bu muqaddas ishga buncha qonni
 Bilmaysizlarmi?

Fikr yuriting!

She'rning 5-bandini diqqat bilan o'qing. Unda dushmanning vahshiy, qabih, razil qiyofasi aks etgan misralari orqali shoir nimani isbot etmoqchi?

Lug'at

Uchmoh - jannat.
Og'och - daraxt.
Dahi - yana.
Olbosti - alvasti, jin.
O'g'urli - sho'rlik.

Topshiriq

She'rning yakunlanuvchi misralidagi savollarga javob izlang va tahlil qiling.

Savol va topshiriqlar

- Sharq o'lkalariga berilgan ta'riflarning mag'zini chaqib, munosabat bildiring.
- Shoir nega dastlab Sharq o'lkasining ta'rifini keltirib, keyingi bandda "Madaniyat degan g'arbli olbosti, Boqing, buning ko'kragidan o'q bosdi", - misralarini keltirgan deb o'ylaysiz?
- O'lkadagi xunrezliklar ifodalangan misralarni aniqlab, millat boshiga solingan yovuzliklar haqida fikr yuriting.
- She'rning tuzilishiga e'tibor bering. Tanlangan bu shakl mazmun ifodasi uchun qay darajada ta'sir qilmoqda? An'anaviy she'r shakllari bilan qiyoslang.

"YURT QAYG'USI" turkumidan

1917-yilda Abdurauf Fitrat o'zi muharrirlik qilgan "Hurriyat" gazetasida "Yurt qayg'usi" nomi bilan bir turkum she'rlar e'lon qildi. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, ularning aksariyati sochma she'rlar, Fitratning o'zi aytmoqchi, mansuralar. Bunday tajriba adabiyotimizda ilk bor Hamza tomonidan amalga oshirilgani ma'lum. "Yurt qayg'usi"ga kirgan she'rlarning birinchisi "Hurriyat"ning 1917-yil 28-iyul, oxirgisi 29-dekabr sonida e'lon qilingan.

YURT QAYG'USI

(she'r)

Onam! Seni qutqarmoq uchun jonmi kerakdir?
 Nomusmi, vijdon bila imonmi kerakdir?
 Temur bila Chingiz qoni toshdi tomrimizdan,
 Aytgil! Seni qutqarmoq uchun qonmi kerakdir?
 Yov suqg'ali kelgach qilichini yuragingga,
 Tush oldiga, ol ko'ksumi — qalqonmi kerakdir?
 Boq, boq, mana turk tengizi toshqun qila qoldi,
 Turon yovini quvg'ali to'fonmi kerakdir?
 Turon, yigiting, barchaga boq, qalqdi oyoqg'a,
 Yurtda qorovul qo'yg'ali arslonmi kerakdir?



1917-yil 29-dekabr

YURT QAYG'USI

(sochma)

Ey Ulug' Turon, arslonlar o'lkasi!
 Senga ne bo'ldi? Holing qalaydir? Nechuk kunlarga qolding?
 Ey Chingizlarning, Temurlarning, O'g'uzlarning, Otillalarning shonli beshiklari! Qani u
 chiqdig'ing yuksak o'rinalar? Qullik chuqurlarig'a nedan tushding?!

Dunyonni «urho»lari bilan titratkan yo'lbars yurakli bolalaring qani? Yer tuprog'ini ko'klarga
 uchiraturg'an tog' gavdali o'g'lonlaring qani? Nechun tovushlari chiqmaydir?

Yer yuzining bir necha polvonlari bo'lgan botir turklaring qani? Nechun chekindilar? Nechun
 ketdilar? Kurash maydonlarini o'zgalarga nechun qo'yidilar? Nechun... Nechun... nechun..? Gapur
 menga, ey Ulug' Turon, arslonlar o'lkasi! Senga ne bo'ldi?

Yer yuzining buyuk sultanatlarini sen qurmadingmi? Hindistonning, Eronning, Ovro'paning
 ulug' xoqonlarini sen yubormadingmi? Ey xoqonlar o'chog'i! Ey qahramonlar tug'oyi! Qani u



chaqmoq chaqishli botir xoqonlaring? Qani avvalg'i o'q yurushli, otli beklaring? Nechun «urho»laring eshitilmaydir?

Dunyo xalqini bo'y sundirg'an saltanatlaring nechun buzildi? Insonlik olamini qanotlari ostinda olgan xoqonlig'ning nechun kuchi o'ldi? Kuchingmi ketdi? Kimsasizmi qoldi?

Yo'q... yo'q... Tangri haqqi uchun yo'ql... Sen kuchsiz emassan, sen kimsasiz emassan! Bugun Yer yuzida sakson milyo'n bolang bor. Bularning tomirlaridagi qon chingizlarning, temurlarning qonidir. Bularning kuchlari sening kuchingdir.

Ey Ulug' Turon, arslonlar o'lkasi! Qayg'urma!

Eski davlating, eski sultanating, eski yigitlaring, eski arslonlaring hammasi bor, hech biri yo'qolmamishdir.

Yolg'iz... Oh, yolg'iz... tarqalmishdir.

1917-yil 28-iyul

Qiyoslang!

Surat mazmuni bilan she'r va sochmada aks etgan fikrlarni bir-biriga qay darajada mutanosibligini aniqlashga harakat qiling.



Bibixonim masjidi xarobalari.

XX asr boshlari.

Lug'at

O'g'uzxon – xunlar davridagi qadimgi turk xoqonlaridan. Asl ismi Musaxon Teoman o'g'li.

Otilla – Xun xoqoni Minjuqning o'g'li (395–453). Otilla akasi vafotidan so'ng umrining oxirigacha xoqonlik qilgan. **tuzuk** – tartib, intizom.

Tug'oy — tug'ilgan joy.

Sakson milyo'n — o'sha yillari er yuzida turkiy qavmga mansub 80 million aholi bo'lgan. She'rda shu raqam nazarda tutilgan.

Savol va topshiriqlar

- She'r hamda mansurani o'qib, millatning "yuksak o'rinalar"dan "qullik chuqurlari"ga tushishining sabablarini aniqlay oldingizmi? Javobingizni asoslang.
- Shoir nega Turon o'lkasini "arslonlar o'lkasi" deya ta'riflagan? Bunda ramziylik bormi yoki Turonning tarixiga ishora?
- "O'gut" she'ridagi da'vat ruhi "Yurt qayg'usi" turkumida qanchalik cho'qqiga chiqqanini she'r hamda sochma matniga tayanib izohlang.
- Fitratning "Yurt qayg'usi" turkumini yozishdan maqsadi nima bo'lgan bo'lishi mumkin?
- She'rda onaga, sochmada esa yurtga murojaat qilish orqali shoir qanday maqsadini pinhona namoyish etmoqda deb o'ylaysiz?
- Shoirning ichki tuyg'ularini sochma shaklda ifodalagani she'r badiiyatini his qilishga qay darajada yordam berdi?

Ijodiy mashq

Aziz o'quvchi, Siz ham "Yurt qayg'usi" turkumiga xos usulda, ya'ni sochma – mansuralar usulida biror bir ijodiy ish tayyorlang. Yozganlaringizni sinfdoshlaringizga o'qib berib, ularga baholating.